



ASALARI OILALARINING QISHLOVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Kattaqulova Baxtigul Abduxoliq qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali magistranti

Diyorov Maqsud Muhammadi o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali magistranti

Eshdavlatov Orif Zokirovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali (PhD)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7941280>

ARTICLE INFO

Received: 08th May 2023

Accepted: 15th May 2023

Online: 16th May 2023

KEY WORDS

Asalari, qishlov, ozuqa, ixota,
omil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada asalari oilalarining qishloviga ta'sir etuvchi omillar va ularni oldini olish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bularning hammasi asalarilarning qishlov davridan talofotsiz chiqarishga hamda qishlovdan sog'lom bo'lib chiqishida katta ahamiyatga kasb etadi.

Kirish. Bugungi kunda asalari oilasining qishlovga chidamliligini oshirish maqsadida kuz faslida asalari oilasini oqsilga boy ozuqalar bilan oziqlantirish talabi juda katta bo'lib hisoblanadi, chunki bu davrda asalari oilasidagi ko'plab yosh asalarilar tarbiyalanadi. Xususan, qishlov davomida o'zidan ko'p energiya va kuch sarflab, ular qishlovdan juda kuchsiz bo'lib chiqadi. Shuning uchun kuzda asalari oilasini qo'shimcha oziqlantirish, ularning ozuqasiga oqsilga va vitaminlarga boy bo'lgan sumalak suvini qo'shib berish asalari oilasining rivojlanishini va qishlov davridan talofatsiz chiqib olishini ta'minlaydi.

Asosiy asal yig'ish vaqti tugashi bilan, ona ari tuxum qo'yishni ozaytiradi. Asalarilar erkak arilarni uyadan haydab chiqaradi va arixonaga ari yelimini (propolis) keltirib, eshikchalarni toraytiradi. Asalarilar qishga tayyorgarlikni boshlaganligini bildiradi. Yosh asalarilar qishlovdan yaxshi chiqadi. Shuning uchun kuzda qurtchalarni ko'paytirish kerak. Buning uchun oilada yosh ona ari bo'lishi zarur. Tabiatda gulshirasi bo'lmaganida shakar sharbati beriladi. Asalari uyasi qiskartiriladi. Uyadan oz asalli ramkalarini olib, ko'p asalli ramkalar qoldiriladi. Oz asalli ramkalar diafragma orqasiga qo'yilsa, asalarilar asal tashib olib o'tadi. Qurtchalarni ko'paytirish uchun oziqani sentyabr oyidan boshlab oz-ozdan, ikki yuz gramm dan berish kerak. Qishlovga asalarilar oziqani o'rtada joylashgan ramkalarga ozroq, chetdagi ramkalarga ko'proq qo'yadi.

Qishlovga kamida oltita asalli ramkani to'la qoplagan asalarilar kirsas yaxshi bo'ladi. Bunday asalari oilasiga kamida o'n kg asal kerak. Qishlovga asal to'plash uchun, ularni o'simliklar bor joyga ko'chirish zarur. Ko'chirilmagan holatda asalarilar qishlovga yaramaydigan pad asal to'playdi. Shira beruvchi gullar bo'lmasa, oziqa uchun shakar sharbati



berilsa qishlov yaxshi o'tadi. Mumkatakli ramkalardagi qurtchalarning ko'pchiligi yetilib chiqishi bilan, asalari uyalarini qishlov uchun yig'ish kerak. Uyadagi asalarilar qancha ramkani qurshab olgan bo'lsa, qishlatish uchun shuncha ramka qoldiriladi. Uyada qoldirilgan asalli ramkalarining usti yarim berkitilgan bo'lib, har bir ramkada 1,5-2 kg asal bo'lishi shart. Sovuq va issiq ob-havo asalari oilasiga bir xil zarar ko'rsatadi. Havo 4 darajadan pasayganida, ularning yonidan ham o'rab isitish kerak. Harorat 4 darajadan yuqori bo'lsa, ustidagi to'shakchasi yetarli bo'ladi. Qishlovga uyalar yig'ilib bo'lganidan keyin, arixona eshikchalarini sichqon o'ta olmaydigan qilib toraytiriladi. Asalarilar o'tib yurishi uchun joy qoldiriladi. Arixonalarini sovuq shamol va qattiq sovuqlardan saqlash uchun to'silgan joylarga o'rnatish zarur. Qish davrida sog'lom asalarilar asalni uncha ko'p sarf qilmaydilar. Bahorga chiqish oldidan ona ari tuxum qo'ya boshlaydi, qurtchalar paydo bo'lishi bilan asal ishlatish ko'payib boradi. Bu davrda asalning ko'p qismi ari qurtchalarini o'stirish uchun, arixonani isitish uchun sarf qilinadi. Oziqa yetarli bo'lmasa, yarim kg asalni qog'ozga o'rab, uya ramkalar ustiga qo'yiladi. Normal qishlayotgan asalarilar, qishning birinchi yarmida tinch turadilar. Qishning ikkinchi yarmida asalari qurtchalari paydo bo'ladi va kunlar isiy boshlashi bilan asalarilarning vizillashi tabora kuchayadi.

Asalari oilalari qishlovdan yaxshi chiqishi uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

1. Kuzda yosh asalarilarni ustirish.
2. Varroatoz va akarapidoz kana va bitlariga qarshi kurashni o'z vaqtida to'g'ri qo'llash.
3. Asalari shamolashini oldini olish uchun shakar sharbatiga antibiotiklar qo'shib berish.
4. Ari oilasida sifatli oziqa qoldirish (tez kristallanadigan va pad asalari qoldirish mumkin emas).
5. Arixonalar elvizak joylarga o'rnatilmasligi.
6. Qishlov vaqtida asalarichi haftada bir marta asalaridan habar olib uya namlanishini kuzatib turishi.
7. Ari uyasini o'z vaqtida qisqartirib, asalarilar qancha mumkatakli ramkalarni egallab tursa, shuncha ramkalar qoldirilishi.

Har bir qoldirilgan mumkatakli ramkalarda bir yarim-ikki kg asal bo'lishi shart.

Material va metodlar: Tadqiqot ishlarini asalari qishlovi davrida, Toshkent viloyati Toshkent tumani "G'ulomxo'ja asalchiligi" fermer xo'jaligida olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili: Toshkent viloyati iqlim sharoitida kuchli va kuchsiz asalari oilalarining qishlovi bir-biridan keskin farq qilishi aniqlandi. Kuchli asalari oilalari tirik vazni birligida (1 kg asalari) kuchsiz asalari oilalariga nisbatan, kam ozuqa sarflashini ham ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarimizda qishlov davrida kuchli va kuchsiz asalari oilalaridagi ozuqa sarfi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Asalari qishlovi davrida ozuqa sarfi

Ko'rsatkichlar	n	Ozuqa sarfi, kg	Har bir asalari yo'lakchasiga ozuqa sarfi, kg	Kuchsiz oilalarga nisbati, %
Kuchli, 3,5-4 rom oralig'idagi oila	10	10,9	2,7±0,09	100,0



O'rtacha, 3-3,5 rom oralig'idagi oila	10	11,9	3,1±0,10	125,4
Kuchsiz, 2-3 rom oralig'idagi oila	10	12,1	4,5±0,13	117,6

1-jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha Toshkent viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlarda asalarilar qishlov davrida eng minimal kuchdagi 3,5-4,0 rom oralig'idagi yo'lakchaga ega bo'lgan asalari oilalari qishlovdan sog'lom chiqishi va kelgusida yaxshi oila sifatida rivojlanishi aniqlandi. Ammo kuchsiz asalari oilalari 2-3 rom oralig'idagi 0,2-0,3 kg asalarisi bo'lgan oilalar esa maqbul qishlov sharoitida ham bahorgacha sog'lom chiqmasdan ko'pincha nobud bo'lishi aniqlandi.

Har ikkala guruhlardagi asalari oilalarida o'rtacha ozuqa sarfi va har bir asalari yo'lakchalari hisobida sarflangan asal ozuqasi sarfi ko'rsatkichlari ko'zga tashlanadi. II-guruhdagi asalari oilalarida esa ozuqa sarfi eng baland cho'qqiga yetganligi ko'rinadi. I-guruhda esa ozuqa sarfi asta-sekinlik bilan oshganligi kuzatildi va o'rtacha har bir oilaga 10,9 kg-dan va har bir asalari yo'lakchasiga esa o'rtacha 2,7 kg-dan ozuqa asal sarflangan.

Xulosa. Tadqiqotlarimizda qishlov davrida kuchli va kuchsiz asalari oilalarida o'rtacha ozuqa sarfi o'rganildi, kuchsiz asalari oilalari uzoq davom etgan qishlov davrida sog'lom chiqmasligi va bahorga kelib ular nobud bo'lishi aniqlandi. Kuchsiz asalari oilasi kuchli asalari oilasiga nisbatan ko'p ozuqa sarflanganligi sababli qishlov davriga asalari oilalarini kuchli qilib tayyorlash kerakligi degan xulosaga kelindi.

References:

1. Kraxotin N.F. O'zbekistonda asalarichilik. Toshkent "Mehnat" 1991.
2. Isamuhammedov A.I. Nikadambayev H.K. "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" Toshkent, 2013
3. Тураев О.С. Зимовка пчелиных семей. ж. «Селское хозяйство Узбекистана», 2005. № 12. стр. 27
4. To'rayev O.S. Eshdavlatov O.Z. Asalari oilasi qishlovi va uni tashkil etish. Toshkent, "Munis" nashriyoti, 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

5. Maxamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(15), 41-47.
6. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. Интернаука, (8-3), 44-46.
7. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI VA TAMOIYILLARI. Journal of Integrated Education and Research, 1(4), 238-240.
8. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.



9. Davlatov, R. (2021). ПАРРАНДАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА КОЛИБАКТЕРЁЗ КАСАЛЛИГИНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ЭНРОФЛОКС-10% НИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Scienceweb academic papers collection.
10. Davlatov, R. (2021). Эффективность ENROVIT-O при химической профилактике колибактериоза цыпля. Scienceweb academic papers collection.
11. Davlatov, R. (2021). Товуқ эймериозининг кимёпрофилактикасида эймериостатикларнинг самарадорлиги. Scienceweb academic papers collection.
12. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhonov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 247-252.
13. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 9-13.
14. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O 'TKAZISH TALABLARI. Scientific Impulse, 1(8), 586-592.
15. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. Scienceweb academic papers collection.
16. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. Scienceweb academic papers collection.
17. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 32-39.
18. G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA SHAKAR ASALI HAMDA SHAKAR QO'SHILGAN ASAL MAHSULOTLARINI ANIQLASH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 66-69.
19. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(4 Part 2), 75-78.
20. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. Scienceweb academic papers collection.
21. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO 'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(5), 77-84.
22. БУЗИЛИШЛАРИ, Ё. Улуқов Беҳзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идирисхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қаҳрамон қизи